

INKLYUZIV TA'LIMNING ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Pedagogika

fakulteti staj'yor-o'qituvchisi

Ismoilov Behruzjon Isroilovich

Tel:+998915793754

Email:ubegzod51@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, 1-bosqich

Pedagogika yo'nalishi talabasi

Jumaniyozova Jasmina Ataqul qizi

Tel:+998953671150

Email: aatoqul@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni, uning ijtimoiy-pedagogik mohiyati hamda davlat siyosatidagi ilmiy qarashlar asosida tahlil qilingan. Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarning teng sharoitda ta'lim olishini ta'minlash bilan bir qatorda, ijtimoiy adolat va bag'rikenglik madaniyatini shakllantiradi.. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xalqaro tajriba va pedagogik innovatsiyalar tahlil etilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida inklyuziv ta'limni rivojlantirish, o'qituvchilarning malakasini oshirish va metodik qo'llab-quvvatlash masalalari ham yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar, integratsiya, ijtimoiy adolat, ta'lim siyosati, pedagogik innovatsiyalar, barqaror rivojlanish, raqamli ta'lim, maxsus pedagogika.*

XXI asr ta'lim paradigmasining asosiy tamoyillaridan biri — inklyuzivlikdir. Inklyuziv ta'lim konsepsiyasi har bir insonning ta'lim olish

huquqini kafolatlaydi hamda imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyat hayotiga to'laqonli integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan.

UNESCO ma'lumotiga ko'ra dunyo bo'ylab 4,3 milliard kishi yoki dunyo aholisining qariyb 60 foizga ega bo'lgan Osiyo - Tinch okani mintaqasida 650 millionga yaqin nogironlar yashaydi. Shuningdek, UNESCO tomonidan 1994- yilda qabul qilingan Salamanka deklaratsiyasida inklyuziv ta'limning xalqaro huquqiy asosi belgilab berilgan. Unda "ta'lim barcha uchun" tamoyili asosida barcha o'quvchilarga bir xil sharoit yaratish zarurligi ta'kidlanadi. O'zbekiston Respublikasida esa 2020-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunlar asosida inklyuziv ta'lim davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bu islohotlar jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, nogironligi bo'lgan bolalarning intellektual va ma'naviy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-2026 o'quv yilidan respublikaning har bir tuman va shaharlarida bosqichma - bosqich inklyuziv ta'lim talablariga javob beradigan kamida bittadan umumta'lim maktabi faoliyati tashkil etiladi. Bu haqda prezidentning 7-fevraldagi 2025-yilga mo'ljallangan davlat dasturini amalga oshirish to'g'risidagi farmonida aytilgan.

Ta'lim tizimiga joriy etilgan "Inclusive School Model" loyihasi doirasida o'qituvchilar, defektologlar, logopedlar va psixologlarning malakasini oshirish bo'yicha 2000 dan ortiq mutaxassis qayta tayyorlandi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar — UNICEF, UNESCO va JICA tomonidan inklyuziv ta'lim uchun moslashtirilgan darsliklar, texnik vositalar va o'quv materiallari taqdim etilmoqda. Bu natijalar inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etish jarayonida muhim bosqich bo'lib, ta'lim tizimining modernizatsiyasida yangi sifat bosqichiga o'tish imkonini bermoqda. Inklyuziv ta'limning samaradorligi faqatgina qonunchilik asoslari bilan emas, balki pedagogik

madaniyat va ijtimoiy ong darajasi bilan ham belgilanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning 60 foizi maxsus tayyorgarlichsiz inklyuziv sinflarda ishlayotganini, bu esa metodik va psixologik murakkabliklarni keltirib chiqarayotganini ta'kidlaydi.

Shu boisdan, inklyuziv ta'limda:

-individual yondashuv

-adaptiv o'quv dasturlari,

differensial baholash tizimi kabi ilg'or metodikalar zarur. Finlyandiya, Kanada va Yaponiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, inklyuziv yondashuv nafaqat maxsus ehtiyoji bor bolalarga, balki sog'lom o'quvchilarga ham empatiya, bag'rikenglik va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish orqali foyda keltiradi. O'zbekiston ta'lim siyosatida ham shu yo'nalishda tizimli ishlar olib borilmoqda, biroq ularni yanada samarali qilish uchun pedagogik innovatsiyalarni integratsiyalash, raqamli texnologiyalar asosida monitoring tizimini yaratish muhimdir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, inklyuziv ta'lim – bu insonparvarlik, adolat va tenglik tamoyillariga asoslangan ta'lim konsepsiyasidir. Uning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni ijtimoiy integratsiya, barqaror rivojlanish va inson kapitalini oshirish bilan bevosita bog'liqdir. Inklyuziv ta'lim — bu nafaqat ta'lim tizimi islohoti, balki inson qadriyatlarini yuksaltiruvchi ijtimoiy-madaniy transformatsiya jarayonidir.

O'zbekiston sharoitida inklyuziv ta'limni yanada takomillashtirish uchun quyidagi strategik yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Pedagoglarning professional tayyorgarligini chuqurlashtirish.
2. Inklyuziv infratuzilmani modernizatsiya qilish.
3. Ota-onalar va jamoatchilik bilan kommunikatsiyani kuchaytirish.
4. Xalqaro hamkorlik asosida tajriba almashish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
2. UNESCO. Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. — Paris, 1994.
3. O'zbekiston Respublikasi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hisobotlari, 2025-yil.
5. UNICEF Uzbekistan. Inclusive Education Project Report. — Tashkent, 2023.
6. Sodiqova R. Inklyuziv ta'limning psixologik-pedagogik asoslari. — Toshkent, 2022.
7. Kamolovich, M. S., & Isakovich, O. R. F. (2023). Inklyuziv ta'limning shaxs shakillanishidagi ahamiyati. *Science and innovation*, 2(Special Issue 12), 277-279.